

G'O'ZANI EKISH TIZIMI HAMDA CHILPISH MUDDATLARINING NAVLARNING BIOLOGIK QURUQ MODDA TO'PLASH JADALLIGIGA TA'SIRI

Razzakov Qahramon Bekturdiyevich, b.f.f.d., dotsent,
ORCID: 0000-0002-9314-4470

Yusupov Hasan Rustamovich, q.x.f.f.d.
ORCID: 0000-0002-6669-7846

Hayitova Matluba Shavkat qizi, magistr,
ORCID: 0009-0008-9839-8091
Urganch davlat universiteti.

Annotatsiya. Maqolada Xorazm viloyatida ekilayotgan yangi, istiqbolli "Sulton", "S-8294" g'o'za navlarini ilgari ekilayotgan Xorazm-127 navi taqqoslagan xolda quruq modda to'plashiga ekish sxemasi hamda chilpish muddatlarining ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, nav, variant, ko'chat qalinligi, ekish sxemasi, chilpish, quruq modda miqdori, gul, poya, barg, paxta, hosil.

Аннотация. В статье изучено влияние схемы посева и сроков прополки на накопление сухого вещества, сравнивая новые перспективные сорта хлопчатника «Султон», «S-8294», посаженные в Хорезмской области, с ранее возделываемым сортом Хорезм-127.

Ключевые слова: Хорезмская область, сорт, вариант, толщина всходов, схема посадки, чеканка, количество сухого вещества, цветок, стебель, лист, хлопчатник, урожайность.

Abstract. This article studies the effect of planting scheme and chipping periods on dry matter accumulation comparing to the new promising cotton varieties "Sultan" and "S-8294" grown in Khorezm region with the previously cultivated in Khorezm-127 variety.

Keywords: Khorezm region, sort, version, seedling thickness, planting scheme, chipping, amount of dry substance, flower, stem, leaf, cotton, yield.

Kirish. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta tolasining ichki va tashqi bozor talablarini inobatga olgan holda g'o'za navlari hosildorligi va uning sifatini oshirish, hududlar misolida navlar parvarishini ishlab chiqarish hamda amaliyotga joriy etish juda muhimdir. Bu kabi masalalarni hal etishda ekilayotgan yangi rayonlashirilgan va istiqbolli g'o'za navlarining biologik, individual xususiyatlariga ko'ra viloyatlar misolida ma'lum tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib o'rganilishi zarur.

Bugungi kunda respublikamizda paxta maydonlari qisqarmoqda. Lekin, bu bilan g'o'za ekini uchun bo'lgan e'tibor kamaymadi, aksincha, hosildorlikni oshirish uchun ilmiy izlanishlar olib borilib, o'tloq-allyuvial tuproqlar sharoitidagi maydonlarda g'o'zaning agroteknikasi yaratilmoqda. Barchamizga ma'lumki, o'simlikning quruq modda to'planishi o'suv davri davomida qo'llanilgan agroteknik tadbirlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ko'p yillik ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'simlik 1 gramm quruq modda hosil qilishi uchun 500-600 g. suv sarflanishi, bunda har bir tup o'simlik o'ziga nisbatan 500-600 g. ko'p suvni bug'lantirishi kuzatiladi. [1; <http://arizona>].

G.S.Yakvolxo'jaeva [2; 21-22-b], R.Musaev [3; 22-b] larning ma'lumotlariga ko'ra g'o'za o'simligini yuqori darajada quruq massa to'plash davri hosil tugish va pishish davrlariga to'g'ri keladi. O'simlikni amal davrida to'plagan quruq massasi avvalo navning biologik xususiyatlariga, qolaversa tashqi muhit sharoitlariga, suv bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Sh.Abdualimovning [4; 12-14-b.] tajribalarida, ko'chat qalinligi kamayishi bilan quruq modda to'plashi ortishi qo'lda chilpish o'tkazilganda nazoratga nisbatan 1,2-0,7 g ga, mexanizatsiya

usulida o'tkazilganda 3,3 -0,8-1,7 g. ga, Piks 1,3 l/ga me'yorda qo'llanilganda 7,7-3,2-6,6 g. ga, Piks 2 l/ga me'yorda qo'llanilganda 5,3-3,1-3,8 g. ga ortgan.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tajribalarimizni 2021-yilda Xorazm viloyati PSU va YAITI Xorazm ITS sharoitida g'o'zaning yangi istiqbolli "Sulton" va "S-8294" g'o'za navlarini ilgari ekib kelinayotgan "Xorazm-127" g'o'za navi taqqoslagan holda quruq modda to'planishiga ekish tizimlari hamda chilpish muddatlari ta'siri o'rganildi.

O'tkazilgan dala tajribasi 13 variantdan iborat bo'lib, 4 ta takrorlanishda 1 yarusda joylashtirildi. Tajriba variantlari 8 qatordan iborat bo'lib, qator orasi 60 sm kenglikda va har bir variant uzunligi 50 metrda begilab olindi, shunda bir delyanka maydoni 240 m² ni tashkil etgan xolda xisobga olinadigan maydon 120 m² ni tashki etdi. Tajribaning umumiy maydoni 12500 m² ni tashkil etdi. (1-jadval)

Natijalar va munozara. Olingan ma'lumotlar (2021 yil) shuni ko'rsatadiki, nazorat variantida, ya'ni g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantda parvarish qilinayotgan o'simliklarning rivojlanish fazalari kesimida biologik quruq massa to'plashi o'rganilganida, 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,84 g/tup, shonalash davrida 6,61 g/tup, gullash davrida 71,2 g/tup, pishish davrida 174,9 g/tup ni tashkil etganligi aniqlandi.

G'o'zaning "Sulton" navi 60x12-1 tizimda ekilib, 10-11 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri olib borilishi belgilangan 2-variantda o'simliklarning biologik quruq massa to'plash

Tajriba tizimi

№	Navlar	Ekish sxemasi	Nazariy ko'chat soni, ming tup/ga	Chilpish muddatlari
1	Xorazm-127	60x15-1	100-110	12-14
2	Sulton	60x12-1	130-138	10-11
3				12-14
4				15-16
5				10-11
6		60x15-1	100-110	12-14
7				15-16
8				10-11
9	S-8294	60x12-1	130-138	12-14
10				15-16
11				10-11
12		60x15-1	100-110	12-14
13				15-16

jadalligi o'rganilganida 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,80 g/tup, shonalash davrida 6,30 g/tup, gullash davrida 66,6 g/tup, pishish davrida 145,8 g/tup ni tashkil etib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantga nisbatan o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,04 g/tup gacha, shonalash davrida 0,31 g/tup gacha, gullash davrida 4,6 g/tup gacha, pishish davrida 29,1 g/tup gacha kam bo'lganligi kuzatildi.

"Sulton" navini 60x12-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shoxi paydo bo'lganida chilpish tadbiri olib borilishi belgilangan 3-variantda o'simliklarning biologik quruq massa to'plash jadalligi o'rganilganida 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,81 g/tup, shonalash davrida 6,20 g/tup, gullash davrida 66,5 g/tup, pishish davrida 158,6 g/tup ni tashkil etib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi

60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantga nisbatan o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,03 g/tup gacha, shonalash davrida 0,41 g/tup gacha, gullash davrida 4,7 g/tup gacha, pishish davrida 16,3 g/tup gacha kam bo'lganligi aniqlandi.

G'o'zaning "Sulton" navi 60x12-1 tizimda ekilib, 15-16 hosil shoxi paydo bo'lganida chilpish tadbiri olib borilishi belgilangan 4-variantda o'simliklarning biologik quruq massa to'plash jadalligi o'rganilganida 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,82 g/tup, shonalash davrida 6,20 g/tup, gullash davrida 67,4 g/tup, pishish davrida 167,7 g/tup ni tashkil etib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantga nisbatan o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi 2-3 chinbarg chiqarish davrida

O'simlikning amal davrida quruq massa to'plashi, gr 2021 y.

№	Navlar	Ekish tizimi	Chilpish muddatlari	2-3 chin barg	Shonalash	Gullash	Pishish				
							Poya	barg	chanoq	paxta	jami
1	Xorazm-127	60x15-1	12-14	0,84	6,61	71,2	47,6	44,2	33,5	49,6	174,9
2	Sulton	60x12-1	10-11	0,80	6,30	66,6	37,9	35,8	29,8	42,3	145,8
3			12-14	0,81	6,20	66,5	42,6	38,9	31,5	45,6	158,6
4			15-16	0,82	6,20	67,4	47,7	41,2	31,5	47,3	167,7
5		60x15-1	10-11	0,81	6,50	70,3	43,1	39,9	32,4	45,6	161,0
6			12-14	0,83	6,59	70,8	46,7	43,2	32,6	48,2	170,7
7			15-16	0,84	6,80	71,5	48,8	46,7	34,9	50,9	181,3
8	S-8294	60x12-1	10-11	0,79	6,15	65,1	36,2	35,2	28,9	39,9	140,2
9			12-14	0,79	5,98	65,7	40,2	36,7	29,9	42,5	149,3
10			15-16	0,78	6,05	66,5	46,3	38,5	30,6	45,2	160,6
11		60x15-1	10-11	0,80	6,29	69,9	38,6	37,2	29,9	41,8	147,5
12			12-14	0,79	6,15	69,8	42,8	38,8	31,8	44,8	158,2
13			15-16	0,81	6,35	69,9	45,9	39,9	33,5	46,5	165,8

0,02 g/tup gacha, shonalash davrida 0,41 g/tup gacha, gullash davrida 3,8 g/tup gacha, pishish davrida 7,20 g/tup gacha kam bo'lganligi ma'lum bo'ldi.

Ekish tizimini 60-15-1 qilib o'zgartirgach, 10-11 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri olib borilishi belgilangan 5-variantda o'simliklarning biologik quruq massa to'plash jadalligi o'rganilganida 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,81 g/tup, shonalash davrida 6,50 g/tup, gullash davrida 70,3 g/tup, pishish davrida 161,0 g/tup ni tashkil etib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantga nisbatan o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,03 g/tup gacha, shonalash davrida 0,11 g/tup gacha, gullash davrida 0,9 g/tup gacha, pishish davrida 13,9 g/tup gacha kam bo'lganligi qayd etildi.

G'o'zaning "Sulton" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shoxi paydo bo'lganida chilpish tadbiri olib borilishi belgilangan 6-variantda o'simliklarning biologik quruq massa to'plash jadalligi o'rganilganida 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,83 g/tup, shonalash davrida 6,59 g/tup, gullash davrida 70,8 g/tup, pishish davrida 170,7 g/tup ni tashkil etib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shox paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantga nisbatan o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi 2-3 chinbarg chiqarish davrida

0,01 g/tup gacha, shonalash davrida 0,02 g/tup gacha, gullash davrida 0,4 g/tup gacha, pishish davrida 4,2 g/tup gacha kam bo'lganligi kuzatildi.

G'o'zaning "Sulton" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 15-16 hosil shoxi paydo bo'lganida chilpish tadbiri olib borilishi belgilangan 7-variantda o'simliklarning biologik quruq massa to'plash jadalligi o'rganilganida 2-3 chinbarg chiqarish davrida 0,84 g/tup, shonalash davrida 6,80 g/tup, gullash davrida 71,5 g/tup, pishish davrida 181,3 g/tup ni tashkil etib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, 12-14 hosil shoxi paydo bo'lganida chilpish tadbiri o'tkazilishi belgilangan 1-variantga nisbatan o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi 2-3 chinbarg chiqarish davrida bir xil natija ko'rsatib, shonalash davrida 0,19 g/tup gacha, gullash davrida 0,3 g/tup gacha, pishish davrida 6,4 g/tup gacha yuqori natija ko'rsatganligi aniqlandi.

G'o'zaning "S-8294" navi ekilgan variantlarda o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi o'rganib chiqilganida, yuqoridagi qonuniyatlar saqlab qolingani kuzatildi. (2-jadval)

Xulosa. Yuqorida olingan natijalardan shularni xulosa qilish mumkinki, g'o'zaning "Sulton" hamda "S-8294" naviga nisbatan g'o'zaning "Xorazm-127" navida biologik quruq massa to'planishi barcha rivojlanish fazalarida ham o'z ustunligini namoyon qilganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR:

1. <http://arizona>
2. Tillabekov B.X., Yakvolxo'jaeva G.S. G'o'zaning S-65-24 va Qirg'iziston-3 navlari hosildorligiga tup qalinligi va o'g'itlar me'yorini ta'siri. Toshkent, 1993, S. 21-22.
3. Мусаев Р. Оптимальные нормы минеральных удобрений при различной густоте стояния сортов хлопчатника в условиях лугово-сазовых почв Ферганской области. Автореферат кандидатской диссертации. Ташкент, 1997. 22 с.
4. Abdualimov Sh. Chilpish usullari va ko'chat qalinligining g'o'zada quruq modda to'plashiga va paxta hosiliga ta'siri//Navlarni yangilash, joylashtirish va parvarish texnologiyasi. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.–T. –B. 12-14.